



ISLOM SUG'URTA BOZORIDA TAKOFUL MODELLARI

Alimov Sherzod

Termiz davlat universiteti

ORCID: 0009-0003-8669-1833

alimovsherzod0074@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada takoful sug'urta fondlarini tashkil etishda takoful modellari turlari, takoful modellari farqlari, rivojlantirish va islom sug'urta moliya bozorining mohiyati, uning zamonaviy islomiy moliyaviy instrumentlariga oid ilmiy yondashuvlarni tadqiq etish, hamda takoful sug'urta modellarining ishlash mexanizmi va tipologiyasining ilmiy asoslarini ochib berish, jahon sug'urta bozorida takoful sug'urta fondlari modellarining mazmuni va uning roliga oid ilmiy-nazariy qarashlarini yoritib berish, sug'urta bozorida takoful sug'urta fondlari modellarining rivojlanishi va zamonaviy holatini baholash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: takoful, takoful fondlari, robbul-mol, takoful sug'urta bozori, tabarru, sof mudoraba, modifikatsiyalangan mudoraba, vakala, vaqf, modifikatsiyalangan agent modeli, sug'urta operatori, agentlik modeli.

МОДЕЛИ ТАКАФУЛА НА РЫНКЕ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ

Алимов Шерзод

Термезский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются типы моделей такафула в организации страховых фондов такафула, различия между моделями такафула, развитие и сущность исламского страхового финансового рынка, его научные подходы к современным исламским финансовым инструментам, а также научные основы механизма функционирования и типологии моделей страхования такафула, освещаются научно-теоретические взгляды на содержание и роль моделей страховых фондов такафула на мировом страховом рынке, а также оценивается развитие и текущее состояние моделей страховых фондов такафула на страховом рынке.

Ключевые слова: такафул, такафул-фонды, роббул-мал, рынок такафул-страхования, табарру, чистая мудараба, модифицированная мудараба, вакала, вакф, модифицированная агентская модель, страховой оператор, агентская модель.

TAKAFUL MODELS IN THE ISLAMIC INSURANCE MARKET

Alimov Sherzod

Termez State University

Abstract. This article examines the types of takaful models in the organization of takaful insurance funds, the differences between takaful models, the development and essence of the Islamic insurance financial market, its scientific approaches to modern Islamic financial instruments, and the scientific foundations of the mechanism of operation and typology of takaful insurance models, sheds light on the scientific and theoretical views on the content and role of takaful insurance fund models in the global insurance market, and assesses the development and current state of takaful insurance fund models in the insurance market.

Keywords: takaful, takaful funds, robbul-mal, takaful insurance market, tabarru, pure mudarabah, modified mudarabah, wakala, waqf, modified agent model, insurance operator, agency model.

Kirish.

O'zbekistonda takoful (islomiy sug'urta) fond bozorini rivojlantirish uchun Mudoraba (foydani bo'lishish) va Vakolat (agentlik) modellarini uyg'unlashtirgan holda, me'yoriy-huquqiy bazani yaratish va aholi ishonchini oshirish asosiy vazifadir. BMT Taraqqiyot Dasturi ko'magida yashil va barqaror sug'urta tamoyillarini integratsiya qilish orqali bozor diversifikatsiyasini ta'minlash istiqbolli hisoblanadi.

Takoful - bu shariat tamoyillari asosida ishlaydigan, o'zaro yordam va hamkorlikka asoslangan islomiy sug'urta tizimidir. Bu an'anaviy sug'urtadan farqli o'laroq, ishtirokchilarning belgilangan xavflarga qarshi bir-birini qo'llab-quvvatlash uchun o'z mablag'larini umumiy jamg'armaga yig'ishiga asoslangan kooperativ tizimdir.¹

Takoful fondi (egalari) esa "Robbul-mol" ya'ni sarmoyani ta'minlovchi sifatida ishtirok etadi. Takoful fondi ishtirokchilar tomonidan "Tabarru" shaklida to'langan mablag'lar hisobidan shakllangan bo'ladi (Baydaulet, 2019). Takoful fond mablag'larini investitsiya qilish natijasida olingan ko'rilgan foyda sug'urta kompaniyasi (takoful operatori) va robbul-mol (takoful fondi egalari) o'rtasida oldindan kelishilgan ulushlarda teng taqsimlanadi. Biroq faoliyat davomida biror zarar yoki kamomad kelib chiqsa, u robbul-mol sifatida takoful sug'urta fondining zarari sifatida qaraladi. Takoful operator ya'ni sug'urtab kompaniyasi mudorib sifatida qilgan xizmati uchun oylik ish haqi olmaydi, u faqat foydadan oladigan qismidan ulush olishi mumkin.

Takoful sug'urta fondida a'zolar ya'ni ishtirokchilar tomonidan kiritilgan moliyaviy mablag'larni ikkita alohida hisobga yo'naltiradi:

- 1) ishtirokchining hisobi;
- 2) ishtirokchining maxsus hisobi.

Takoful sug'urta fondi ishtirokchilarining hisobidagi mablag'lar shariatga muvofiq keladigan moliyaviy loyihalariga ya'ni halol loyihalarga (masalan, islomiy obligatsiyalar - sukuk, ko'chmas mulk) investitsiya qilinadi. Sug'urta kompaniyasi o'z mehnati va tajribasi bilan qatnashadi. Biror zarar ko'rilsa, u ishtirokchining maxsus hisobidan olib qoplanadi. Yakunda, maxsus hisobdagi sof daromadlar (ya'ni, jami kiritilgan mablag'-qoplamalar-faoliyat xarajatlaridan qolgan zaxiralar) va ishtirokchi hisobidagi sof tushumlar (ya'ni, jami investitsiya+foйда-faoliyat xarajatlaridan) qoldiq sifatida yig'iladi (Ali al-Qaradaghi, 2016). Yig'ilgan mablag'lar esa takoful fondi operator vakili sifatida barcha ishtirokchilarga ularning ulushlariga mos ravishda kelishilgan nisbatda (masalan, 70/30 yoki 60/40) hamda takoful shartnomasiga muvofiq taqsimlashga mas'ul bo'ladi.

Takoful sug'urtasi islomiy moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U o'zaro yordam, adolat va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi.

Ba'zi mamlakatlarda Islom sug'urtasi "derazalari"ni yaratish takoful sug'urta bozori rivojlanishining asosiy yo'nalishlardan biridir. Misol uchun, Indoneziya mamlakatida Islom sug'urta kompaniyalari sonidan sezilarli darajada ko'p. Masalan, 2021-yilga qadar umumiy takoful bozorida faoliyat yuritayotgan 30 ta sug'urta kompaniyadan faqat 7 tasi to'liq takoful operatorlari, qolgan 23 tasi esa Islom "derazalari"dir. Oilaviy takoful haqida ham shunday deyish mumkin: bu yerda 3 ta to'liq takoful operatorlari uchun 17 ta "deraza" bor (Vinka Sindy Agustin, 2020).

Adabiyotlar sharhi.

Islom sug'urta bozorida takoful modellarining rivojlanishi va ularning iqtisodiy-huquqiy asoslari dunyo olimlari hamda iqtisodchilari tomonidan keng o'rganishlar olib borilgan. Adabiyotlar tahlili asosan takoful modellarining shariat tamoyillariga mosligi, risklarni boshqarish samaradorligi va an'anaviy sug'urtadan farqlariga qaratilgan.

¹ 2025-yil 25-iyunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli Loyihalar Milliy Agentligi bilan hamkorlikda sug'urta bozori regulyatori va sug'urta sohasi mutaxassislari uchun "Takofulni amaliyotda joriy etish" mavzusida xalqaro ekspert ishtirokida o'quv seminari.

Zamonaviy islom iqtisodchilari va huquqshunoslaridan Prof Dr Mohd Ma'sum Billah (2019) o'zining "Islamic Insurance Products" asarida islomiy sug'urtaning nafaqat nazariy asoslarini, balki uning an'anaviy sug'urtadan farqli o'laroq qanday qilib adolatli moliyaviy tizim bo'la olishini isbotlab bergan. Uning qarashlarida Mudoraba modeli markaziy o'rin tutadi. Ma'sum Billah Mudoraba modelini "Foydani bo'lishish shartnomasi" deb qaraydi. Bu modelda ikki tomon ishtirok etadi ya'ni sug'urta badallarini to'lovchi mijozlar (sarmoya egalari) hamda mablag'larni boshqaruvchi va investitsiya qiluvchi sug'urta kompaniyalari (mudorib). Agar investitsiyada zarar ko'rilsa, bu zarar faqat sarmoya egalari (ishtirokchilar) zimmasida bo'ladi. Sug'urta kompaniyalari esa o'z mehnatiga haq olmaydi - bu uning uchun asosiy risk hisoblanadi. Ma'sum Billah har bir ishtirokchi o'z mablag'i qayerga yo'naltirilayotganini va foyda qanday shakllanayotganini bilish huquqiga ega ekanini ta'kidlaydi.

Ya'na bir iqtisodchi olimlardan Mansur Khan (2029) o'zining 2005-yilda chop etilgan tadqiqotlarida islomiy moliya tizimining "tozaligini" ta'minlash uchun sug'urta tarkibidagi uchta asosiy man etilgan elementni - Ribo (sudxo'rlik), Gharar (noaniqlik) va Maisir (qimor) - qanday qilib texnik jihatdan bartaraf etish masalasini chuqur tahlil qilgan. Mansur Khaning (2029) 2005-yildagi ishlari islomiy sug'urtani shunchaki diniy tushunchadan moliyaviy muhandislik darajasiga olib chiqdi. Uning tahlillarida takoful operatorlari uchun alohida buxgalteriya hisobini yuritish zarurligini isbotlab berdi ya'ni kompaniya mablag'i va ishtirokchilar mablag'ini ajratish kerakligi ta'kidlandi. Agarda sug'urta hodisasi yuz bermagan taqdirda ham mijozning fondagi ulushi saqlanib qolish mexanizmini asoslab berdi. Khan (2029) tadqiqotlari takofulni "riskni sotish" emas, balki "riskni birgalikda boshqarish" tizimi sifatida dunyoga tanitdi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda islomiy manbalar va adabiyotlarning tahlil usullari qo'llanilib, takoful sug'urtasining asosiy modellari tushunchasi, turlari va asosiy farqlari asosida umumiy tahlillar amalga oshirilgan. Mazkur tahlil jarayonida takoful sug'urtasining asosiy modellarining boshqaruv - huquqiy asosini chuqur o'rganish metodlari qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, takoful sug'urta bozorini samarali boshqarishda takoful sug'urtasining asosiy modellari sifatini oshirish, rivojlantirishda bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va ko'rsatib o'tilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Islom moliyasida ya'ni takoful (islom sug'urtasi) sug'urta bozori doirasida 6 (olti) xil iqtisodiy modellar ishlatiladi. Islom sug'urtasining turli xil modellarining mavjudligi takoful fondlarini boshqarishda yondashuvlardagi farqlarga bog'liq hisoblanadi. Bunda asosan islom sug'urta kompaniyasi tomonidan olinadigan xizmat haqining Takoful fondlarini boshqarish modelini tanlashiga bog'liqligi bilan farqlanadi.

Takoful sug'urtasining quyidagi asosiy modellari mavjud:

1. Sof mudoraba;
2. Modifikatsiyalangan mudoraba;
3. Vakala (agentlik) modeli;
4. Modifikatsiyalangan agent modeli;
5. Aralash (gibrid) model (vakala + mudaraba);
6. Agentlik modeli + vaqf.

Ushbu iqtisodiy modellardan biri "Sof mudoraba"ga asoslangan model hisoblanadi. Mudoraba modeli - ya'ni "Foyda taqsimlash shartnomasi" hisoblanib, sug'urta bozorining takoful tizimidagi eng asosiy va keng tarqalgan nazariy modellardan biridir. Uning asosi islom huquqidagi "Mudoraba" (sharikchilik) shartnomasiga tayanadi. Bunda, "Sug'urta kompaniyasi" mudorib sifatida ishtirok etadi. Uning yana bir nomi "Fond menejeri" ham deyiladi.

Sof mudoraba modelning ishlash mexanizmi va ilmiy-nazariy jihatlarini quyidagi 1-rasmda keltirilgan:



1-rasm. Sof mudoraba modelning ishlash mexanizmi

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.


Halol loyihalarga qilingan investitsiyalardan olingan foyda ishtirokchilar va takoful operatori o'rtasida kelishilgan ulushlarda bo'linadi. Sug'urta qoplamalari ishtirokchilarning badallaridan qoplanadi, bu ularning foydadagi ulushini o'z ichiga oladi. Shundan so'ng ortiqcha deb topilgan mablag'lar takoful fondiga qaytariladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, ishtirokchilarga tegishli hisoblanadi.

Odatda, takoful operatorining ko'plab kompaniyalardagi ulushi ishtirokchilarning ulushidan oshib ketadi. Buning sababi, sug'urta kompaniyasi kundalik faoliyati bilan bog'liq doimiy xarajatlarni o'z zimmasiga oladi. Sof mudoraba modeli Malayziya davlatida ayniqsa, islom sug'urtasi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida keng qo'llanilgan.

Imom Shofe'iy va boshqa fiqihlar mudoraba shartnomasini tahlil qilganda, Mudorabani qoidasiga ko'ra, agarda investitsiya jarayonida moliyaviy zarar ko'rilsa (ayb boshqaruvchida bo'lmasa), bu zarar faqat sarmoyadorlar (ishtirokchilar) zimmasiga tushadi. Kompaniya esa qilgan mehnati va vaqtini yo'qotadi. Bu kompaniyani mablag'larni yanada samaraliroq boshqarishga undaydi.

Takoful sug'urtasida Modifikatsiyalangan mudoraba modeli - bu sof mudoraba tizimining kamchiliklarini bartaraf etish va zamonaviy bozor talablariga moslashtirish uchun ishlab chiqilgan shaklidir. Modifikatsiyalangan mudoraba va sof mudoraba o'rtasidagi asosiy farq shundaki, takoful operatori va ishtirokchilar investitsiya natijasida olingan foydani emas, balki ortiqcha mablag'ni (sug'urta hodisasi yuz berganda ishtirokchilarga sug'urta qoplamalari to'langanidan keyin qolgan miqdorni) bo'lishadilar.

Modifikatsiyalangan mudoraba modelning ishlash mexanizmi va ilmiy-nazariy jihatlarini quyidagi 2-rasmda keltirilgan:



2-rasm. Modifikatsiyalangan mudoraba modelning ishlash mexanizmi

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.


Takoful operatorlari (sug'urta kompaniyalari) sof mudoraba modelidan voz kechib, modifikatsiyalangan shaklga o'tishiga bir necha omillar sabab bo'lgan. Masalan, agar investitsiya foyda keltirmasa, sof mudoraba modelida kompaniya maosh va ijara haqini to'lay olmay qoladi. Modifikatsiya mudoraba modelida esa qo'shimcha daromad manbalarini beradi. Undan tashqari sug'urta kompaniyasi faqat pulni ko'paytirishdan emas, balki sug'urta hodisalarini kamaytirishdan (ya'ni fondga pulni tejashdan) ham manfaatdor bo'ladi. Bu ham biro mil sifatida qaraladi. Keyingisi sug'urta ishini yuritish katta xarajat talab qiladi. Modifikatsiya qilingan model ushbu xarajatlarni adolatli taqsimlaydi.

Modifikatsiyalangan mudoraba modelning kamchiliklaridan biri shundaki, bir qator musulmon huquqshunos olimlarining fikriga ko'ra, ortiqcha mablag' faqat ishtirokchilarga tegishli bo'lishi va to'liq takoful fondiga qaytarilishi kerak².

Takoful (islom sug'urtasi) sug'urta bozorida iqtisodiy modellardan ya'na biri "**Vakala modeli**" modeli hisoblanadi. **Vakala** modeli - bu Takaful (**islomiy sug'urta**) tizimida keng qo'llanadigan boshqaruv modeli bo'lib, unda sug'urta kompaniyasi ishtirokchilar nomidan **vakil (agent)** sifatida faoliyat yuritadi. **Vakala modeli** islom moliya tamoyillariga asoslanadi va foiz (riba), noaniqlik (g'arar) hamda qimor (maysir)dan albatta xoli bo'lishi kerak.

Vakala arabchada "**vakillik qilish**" degan ma'noni anglatadi. Ushbu modelda **ishtirokchilar** sug'urta badallarini to'laydilar. **Takoful operatori (sug'urta kompaniya)** esa ishtirokchilarning yig'ilgan jamg'armasini boshqaradi. Kompaniya boshqaruv uchun **vakillik haqini** olishadi. Ya'ni kompaniya foydadan ulush olmaydi, balki oldindan kelishilgan **xizmat haqi** oladi.

Vakala (agentlik) modelining ishlash mexanizmi va ilmiy-nazariy jihatlari quyidagi 3-rasmda keltirilgan:



3-rasm. Vakala (agentlik) modelining ishlash mexanizmi

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.


Ishtirokchilar to'lagan hissalaridan kompensatsiya to'langandan keyin qolgan har qanday ortiqcha mablag' (shu jumladan, olingan har qanday foyda) butunlay ishtirokchilarga tegishli hisoblanadi. Sof va Modifikatsiyalangan mudorabadan farqli o'laroq, agentlik modelida sug'urta kompaniyasi (takoful operatori) foydani ishtirokchilar bilan belgilangan nisbatda taqsimlamaydi. Agentlik modeli Yaqin Sharqda keng tarqalgan takoful modellaridan hisoblanadi.

² 2011-yilda Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkilotining (AAOIFI) Shariat apellyatsiya kengashi tashkilotning aksiyadorlarga ortiqcha mablag'ning bir qismini ham olishga ruxsat berilmaganligi haqidagi avvalgi qarorini yumshatishni taklif qildi. Natijada, ortiqcha mablag'ning bir qismini (30% gacha) kompaniya rahbariyati talab qilishi mumkinligi, ammo aksiyadorlar tomonidan emasligi taklif qilindi.

Takoful sug'urtasida Modifikatsiyalangan agent modeli bugungi kunda ko'plab islomiy moliya muassasalari tomonidan qo'llaniladigan gibrid yondashuv hisoblanadi. Bu model sof "Vakala" va sof "Mudaraba" modellarining kuchli jihatlarini birlashtiradi.

Modifikatsiyalangan agent modeli – takoful fondlarini shakllantirishda ushbu model standart agentlik modelidan farq qiladi, chunki u foyda va zararni taqsimlash tizimining elementlarini (mudoraba mexanizmiga asoslangan) o'z ichiga oladi. Agentlik modelida bo'lgani kabi, sug'urta kompaniyasi (takoful operatori) takoful fondidan to'langan badallarning bir qismidan komissiya oladi. Investitsiyalardan olingan foyda, sug'urta hodisasidan jabrlanganlarga to'lovlardan so'ng, kompaniya va ishtirokchilar o'rtasida belgilangan nisbatda taqsimlanadi. Ushbu modelda takoful operatori (sug'urta kompaniyasi) bir vaqtning o'zida ham vakil (agent), ham mudorib (boshqaruvchi) rolini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, o'zgartirilgan mudorabada bo'lgani kabi, sug'urta kompaniyasi (takoful operatori) va ishtirokchilar ortiqcha mablag'ni bo'lishadilar. Ya'ni sug'urta badallar kelib tushishi bilan ularning ma'lum bir qismi (masalan, 15-25%) operatorning ma'muriy xarajatlarini qoplash uchun to'lov sifatida ajratib olinadi.

Modifikatsiyalangan agent modelining ishlash mexanizmi va ilmiy-nazariy jihatlarini quyidagi 4-rasmda keltirilgan:



4-rasm. Modifikatsiyalangan agent modelining ishlash mexanizmi


Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.

Modifikatsiyalangan agent modeli takoful sug'urta kompaniyasiga ham xizmat ko'rsatuvchi agent, ham professional investor sifatida rivojlanish imkonini beradi. Bu model ayniqsa O'zbekiston kabi endi rivojlanib, shakllanayotgan sug'urta bozorlari uchun jozibador, chunki u yangi tashkil etilgan sug'urta kompaniyasi (takoful operatori)ga dastlabki yillarda o'z xarajatlarini qoplash va shu bilan birga mijozlar mablag'larini samarali boshqarishga imkoniyat yaratib beradi.

Aralash (gibrid) model (vakala+mudoraba) modeli yuqorida muhokama qilingan boshqa modellarga xos bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etadi. Gibrid model agentlik modeliga xos bo'lgan barcha narsani va sof mudorabani birlashtiradi. Shu sababli u ko'pincha vakala-mudoraba modeli deb ham ataladi. Bir tomondan, sug'urta kompaniyasi badallarni to'lagandan so'ng darhol komissiya oladi, bu esa operatsion xarajatlarni qoplash uchun ishlatiladi, boshqa tomondan, operator takoful fondiga investitsiya qilishdan olingan foydaning bir qismini talab qilishi mumkin. Musulmon huquqshunos olimlarining fikriga ko'ra, gibrid modelning asosiy afzalligi shundaki, kompaniya ishtirokchilarga tegishli bo'lishi kerak bo'lgan ortiqcha mablag'ga da'vo qilmaydi.

Shubhasiz, bu model sug'urta kompaniyalari uchun qulayroq. Ishtirokchilarga kelsak, biz agentlik va sof mudoraba modellari afzalroq deb hisoblaymiz. Birinchisida, kompaniya takoful fondini boshqarish uchun komissiya olsa-da, investitsiya daromadining bir qismiga ega bo'lish huquqiga ega emas. Ikkinchisida, kompaniya o'z xizmatlari uchun belgilangan to'lovni talab qilmasa-da, investitsiya samaradorligiga qiziqish bildiradi, chunki uning foydasi bunga bog'liq. Gibril modeldan foydalangan holda, sug'urta kompaniyasi (takoful operatori) ikkalasini ham samarali ravishda oladi va ishtirokchilar mablag'larini boshqarishdagi muvaffaqiyatsizliklardan agentlik komissiyasi orqali o'zini sug'urta qiladi.

Aralash (gibril) model (vakala+mudoraba) modelining ishlash mexanizmi va ilmiy-nazariy jihatlari quyidagi 5-rasmda keltirilgan:



5-rasm. Aralash (gibril) model (vakala+mudoraba) modelining ishlash mexanizmi

Ishtirokchilar to'lagan hissaning ma'lum bir foizi (masalan, 10-20%) kompaniyaning operatsion xarajatlarini (ijara, xodimlar oyligi, marketing) qoplash uchun darhol ajratib olinadi. Bu kompaniyaning barqaror daromad manbai hisoblanadi. Qolgan mablag'lar sug'urta zaxiralarda to'planadi va shariatga mos loyihalarga investitsiya qilinadi. Ushbu sarmoyadan olingan sof foyda operator va ishtirokchilar o'rtasida oldindan kelishilgan nisbatda (masalan, 30/70 yoki 50/50) taqsimlanadi. Yil yakunida sug'urta to'lovlari va barcha xarajatlardan keyin jamg'armada qolgan ortiqcha mablag' (surplus) faqat ishtirokchilarga tegishli bo'ladi. Operator odatda ushbu summadan ulush olmaydi.

Agentlik modeli + vaqf - Islomiy nuqtai nazardan, asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u sug'urta mukofotlarining beg'araz tabiati va sug'urta hodisasi yuz berganda ishtirokchilardan kompensatsiya kutish o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etadi.


Takoful fondi bu yerda vaqf fondi deb ataladi. Fondning asoschilari kompaniya aksiyadorlari hisoblanadi. Ular fondga mablag' o'tkazish orqali vaqf qoidalariga ko'ra, ularga egalik huquqini yo'qotadilar. Vaqf fondiga badal to'lash orqali ishtirokchilar ularga bo'lgan huquqlarini ham yo'qotadilar. Takoful operatori fondni boshqarish uchun kelishilgan komissiya oladi.

Biz naqd pul deb ataladigan moliyaviy vosita bilan faoliyat olib bormoqdamiz, bu yerda mavzu naqd puldir. Naqd pul vaqf shariat tomonidan, agar pul shariatning ribo taqiqini buzmasdan halol loyihalarga investitsiya qilinsa ruxsat etilgan. Yana bir masala vaqf jamg'armasini yaratish va boshqarish orqali takoful operatori aslida ikkita rolda ishlaydi: vaqf (vaqf asoschisi) va mutavalli (vaqf boshqaruvchisi).

Bu ikki vazifani bitta shaxs tomonidan bajarish takoful tarixida sodir bo'lgan va ma'lum shartlar asosida taqiqlanmagan. Vaqfdan har qanday mablag'ni oluvchi manfaatdor shaxslardan biri bo'lishi ham mumkin. Biroq, vaqf asoschisining menejer va manfaatdor shaxs sifatida ham harakat qilishi (hatto yolg'iz emas, balki boshqa ishtirokchilar bilan birgalikda vaqf

fondidan mablag'larni investitsiya qilishdan foyda olishi) mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas.

Agentlik modeli + vaqfning ishlash mexanizmi va ilmiy-nazariy jihatlarini quyidagi 6-rasmda keltirilgan:



6-rasm. Agentlik modeli + vaqfning ishlash mexanizmi

Agentlik modeli + vaqf model birinchi marta Pokistonda qo'llanilgan va o'sha mamlakatdagi sug'urta kompaniya(takoful operator)lari tomonidan keng qo'llanila boshlangan.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda islomiy moliya tizimi, jumladan takoful sug'urtasi so'nggi yillarda asta-sekin rivojlanib bormoqda. Mamlakatda takaful xizmatlariga qiziqish ortib bormoqda, chunki aholining katta qismi musulmon bo'lib, shariatga mos moliyaviy xizmatlarga ehtiyoj mavjud.

Hozirgi kunda O'zbekistonda takoful xizmatlari endigina shakllanmoqda va ayrim sug'urta kompaniyalari tomonidan takoful "oyna" yoki alohida takoful operatorlari orqali taklif qilinmoqda. Masalan, mamlakatda ilk takoful operatorlaridan biri sifatida "Apex Takaful" faoliyat yuritmoqda va u vakala+mudoraba (gibrid) modelidan foydalanadi.

Modifikatsiyalangan agent modeli esa takaful tizimida samarali boshqaruv mexanizmlaridan biri bo'lib, u **vakala va mudoraba shartnomalarini birlashtiradi**. Bu model operator va ishtirokchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni muvozanatlashtirib, mablag'larni samarali boshqarish imkonini beradi.

Kelajakda islomiy moliya tizimining rivojlanishi bilan takoful sug'urtasi ham yanada kengayib, ushbu modelning qo'llanilish doirasi oshishi kutilmoqda.

Aralash (gibrid) model - takaful sug'urtasining eng samarali boshqaruv modellaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ko'plab zamonaviy takaful kompaniyalari aynan shu modeldan foydalanadi.

Kelajakda islomiy moliya bozori kengayib borishi bilan aralash modelning ahamiyati yanada ortishi kutilmoqda.

O'zbekistonda takoful tizimini joriy etishda Aralash model eng maqbul variantlardan biri sanaladi. Chunki u:

1. Sug'urta bozori ishtirokchilari uchun tushunarli mexanizmni taklif etadi.
2. Yangi tashkil etiladigan islomiy sug'urta darchalari (oyna) uchun operatsion xatarlarni kamaytiradi.
3. Ushbu model tobora keng tarqalmoqda, asosan Yaqin Sharqda. U AAOIFI tomonidan tavsiya etilgan bo'lib Bahrayn Markaziy banki uni mamlakatda faoliyat yuritayotgan barcha

takoful operatorlari uchun majburiy qilib belgilagan.

Bunga sabab kompaniya faqat xizmat haqi bilan cheklanib qolmay, investitsiyalarni muvaffaqiyatli boshqarishdan ham manfaatdor bo'ladi. Dastlabki yillarda investitsiya foydasi kam bo'lgan taqdirda ham, vakala to'lovi kompaniyaning o'zini o'zi ta'minlashiga yordam beradi. Bu moliyaviy barqarorlikka olib keladi. Ishtirokchilar o'z mablag'larining qaysi qismi xizmat haqi sifatida olinayotganini va qancha qismi sarmoya qilinayotganini aniq shaffof tarzda bilib turishadi.

Adabiyotlar / Jumepamyra / Reference:

Ali al-Qaradaghi (2016) "Islamic Insurance (Takaful): A Guide to Shariah-Compliant Insurance". 359-369 bet.

Baydaulet E.A. (2019) Islomiy moliya asoslari. "O'zbekiston" NMIU, Toshkent. B. 79.

Mansur Khan (2029) "Islom bank ishi va moliyasi: nazariya va amaliyotda shariat boshqaruvi" asari. "Journal of Management research" jurnali, fevral.

Masum Billah M. (2019) "Islamic Insurance Products" asari. "Springer International nashriyoti".

Vinka Sindy Agustin (2020) "Indoneziyada Islom sug'urtasi: Kelajak va istiqbollari" Sebelas Maret biznes sharhi 5-jild, 2-son, 81-92-betlar.